

BMTTDning O‘zbekistondagi Doimiy vakilining Qoraqalpog‘istonga tashrifi

Sentabr oyining oxirida BMT Taraqqiyot Dasturining O‘zbekistondagi Doimiy vakili Matilda Dimovska xonimning Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrifi bo‘lib o‘tdi. Tashrif davomida Dimovska xonim mintaqaning hozirgi holati, respublika hukumatining ekologik halokat oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan harakatlari, shuningdek BMTTDning Qoraqalpog‘istondagi faoliyati bilan tanishdi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesinde o‘tkazilgan rasmiy uchrashuv chog‘ida Dimovska xonim Orolbo‘yi mintaqasi BMTTDning O‘zbekistondagi faoliyatida muhim o‘rin egallishini ta’kidladi. Bu yerda 2012 yildan hozirgi vaqtgacha amalga oshirib kelinayotgan qo‘shma loyihalar va tashabbuslar doirasida ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash bo‘yicha 60 dan ziyod loyihalar joriy etildi, bu esa 66 mingdan ziyod qishloq aholisini ichimlik suvi, elektr energiyasi bilan ta’minlashga, shuningdek sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimini yaxshilashga imkon berdi.

Respublikada ilk bor BMTTD va Moslashish jamg‘armasi bilan hamkorlikdagi loyiha doirasida umumiy maydoni 15 300 gektar bo‘lgan hududda mahalliy aholi ishtirokida 10 ta yaylov shirkati tashkil etildi. Unga a‘zo bo‘lgan 43 000 nafar kishi tanazzulga uchragan yaylovlar mahsuldorligini tiklash va yangilarini barpo etish umumiy maqsadi ostida birlashdilar. Agro va suvni tejaydigan texnologiyalar hamda landshaftlar miqyosida moslashish choralarini joriy etish orqali iqlimiy barqaror qishloq xo‘jaligini tashkil etish bo‘yicha kompleks choralar amalga oshirilmoqda.

BMTTD 2014 yildan beri BMT Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi Doiraviy konvensiyasining Moslashish jamg‘armasi tomonidan moliyalashtirilayotgan «O‘zbekistonning qurg‘oqchil hududlarida joylashgan fermer va dehqon xo‘jaliklarining iqlimiy barqarorligini ta’minlash» qo‘shma loyihasini amalga oshirish yuzasidan O‘zgidromet bilan hamkorlik qilmoqda. Loyiha ko‘magida iqlim o‘zgarishiga moslashish choralaridan biri sifatida Qoraqalpog‘istonda ilk bor yaylov shirkatlari tuzildi. Ularning vazifasi yaylov chorvachiligini rivojlantirish uchun barqaror ozuqa bazasini tashkil etish, yaylovlarni barqaror boshqarish, tanazzulga uchragan yerlarni tiklash va yaxshilashdir. Tashrif doirasida Dimovska xonim ishtirokida yaylov shirkatlariga foydalanish uchun uchta traktor topshirish marosimi o‘tkazildi, shuningdek, Nukus shahrida BMTTD va YUNESKOning yangi «Barqaror qishloq rivojlanishiga ko‘maklashish orqali Orolbo‘yi mintaqasida inson xavfsizligi muammolarini hal etish» loyihasi ishga tushirildi.

«Ishonchingiz komil bo‘lsin, BMTTD uchun Orolbo‘yi mintaqasini qo‘llab-quvvatlash masalalari muhim o‘rin egallaydi, va biz bundan keyin ham mintaqadagi ishtirokimizni kengaytirishga harakat qilamiz. BMTTD mintaqada Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun innovatsion yechimlar joriy etish bo‘yicha global tajribani taklif qiladi», - deb ta’kidladi BMTTD Doimiy vakili.

Shuningdek, tashrif dasturi doirasida Taxtako‘pir, Mo‘ynoq va Shumanay tumanlarida fermerlar, ishbilarmonlar va mahalliy hamjamiyat vakillari bilan uchrashuvlar o‘tkazildi.

(Ma’lumot BMTTD/O‘zgidromet/Moslashish jamg‘armasining «O‘zbekistonning qurg‘oqchil hududlarida joylashgan fermer va dehqon xo‘jaliklarining iqlimiy barqarorligini ta’minlash» qo‘shma loyihasi tomonidan taqdim etildi)

БМТТДнинг Ўзбекистондаги Доимий вакилининг Қорақалпоғистонга ташрифи

Сентябр ойининг охирида БМТ Тараққиёт Дастурининг Ўзбекистондаги Доимий вакили Матильда Димовска хонимнинг Қорақалпоғистон Республикасига ташрифи бўлиб ўтди. Ташриф давомида Димовска хоним минтақанинг ҳозирги ҳолати, республика ҳукуматининг экологик ҳалокат оқибатларини бартараф этиш юзасидан ҳаракатлари, шунингдек БМТТДнинг Қорақалпоғистондаги фаолияти билан танишди.

Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгесида ўтказилган расмий учрашув чоғида Димовска хоним Оролбўйи минтақаси БМТТДнинг Ўзбекистондаги фаолиятида муҳим ўрин эгаллишини таъкидлади. Бу ерда 2012 йилдан ҳозирги вақтгача амалга ошириб келинаётган қўшма лойиҳалар ва ташаббуслар доирасида ижтимоий инфратузилмани яхшилаш бўйича 60 дан зиёд лойиҳалар жорий этилди, бу эса 66 мингдан зиёд қишлоқ аҳолисини ичимлик суви, электр энергияси билан таъминлашга, шунингдек соғлиқни сақлаш ва таълим тизимини яхшилашга имкон берди.

Республикада илк бор БМТТД ва Мослашиш жамғармаси билан ҳамкорликдаги лойиҳа доирасида умумий майдони 15 300 гектар бўлган худудда маҳаллий аҳоли иштирокида 10 та яйлов ширкати ташкил этилди. Унга аъзо бўлган 43 000 нафар киши таназзулга учраган яйловлар маҳсулдорлигини тиклаш ва янгиларини барпо этиш умумий мақсади остида бирлашдилар. Агро ва сувни тежайдиган технологиялар ҳамда ландшафтлар миқёсида мослашиш чораларини жорий этиш орқали иқлимий барқарор қишлоқ хўжалигини ташкил этиш бўйича комплекс чоралар амалга оширилмоқда.

БМТТД 2014 йилдан бери БМТ Иқлим ўзгариши тўғрисидаги Доиравий конвенциясининг Мослашиш жамғармаси томонидан молиялаштирилаётган «Ўзбекистоннинг қургўқчил худудларида жойлашган фермер ва деҳқон хўжалиқларининг иқлимий барқарорлигини таъминлаш» қўшма лойиҳасини амалга ошириш юзасидан Ўзгидромет билан ҳамкорлик қилмоқда. Лойиҳа кўмагида иқлим ўзгаришига мослашиш чораларидан бири сифатида Қорақалпоғистонда илк бор яйлов ширкатлари тузилди. Уларнинг вазифаси яйлов чорвачилигини ривожлантириш учун барқарор озуқа базасини ташкил этиш, яйловларни барқарор бошқариш, таназзулга учраган ерларни тиклаш ва яхшилашдир. Ташриф доирасида Димовска хоним иштирокида яйлов ширкатларига фойдаланиш учун учта трактор топшириш маросими ўтказилди, шунингдек, Нукус шаҳрида БМТТД ва ЮНЕСКОнинг янги «Барқарор қишлоқ ривожланишига кўмаклашиш орқали Оролбўйи минтақасида инсон хавфсизлиги муаммоларини ҳал этиш» лойиҳаси ишга туширилди.

«Ишончингиз комил бўлсин, БМТТД учун Оролбўйи минтақасини қўллаб-қувватлаш масалалари муҳим ўрин эгаллайди, ва биз бундан кейин ҳам минтақадаги иштирокимизни кенгайтиришга ҳаракат қиламиз. БМТТД минтақада Барқарор ривожланиш мақсадларига эришиш учун инновацион ечимлар жорий этиш бўйича глобал тажрибани тақлиф қилади», - деб таъкидлади БМТТД Доимий вакили.

Шунингдек, ташриф дастури доирасида Тахтакўпир, Мўйноқ ва Шуманай туманларида фермерлар, ишбилармонлар ва маҳаллий ҳамжамият вакиллари билан учрашувлар ўтказилди.

(Маълумот БМТТД/Ўзгидромет/Мослашиш жамғармасининг «Ўзбекистоннинг қургўқчил худудларида жойлашган фермер ва деҳқон хўжалиқларининг иқлимий барқарорлигини таъминлаш» қўшма лойиҳаси томонидан тақдим этилди)

Визит Постоянного представителя ПРООН в Узбекистане в Каракалпакстан

В конце сентября Постоянный представитель Программы развития ООН в Узбекистане г-жа Матильда Димовска посетила Республику Каракалпакстан, где ознакомилась с нынешним состоянием региона, усилиями правительства по предотвращению последствий экологического кризиса, а также деятельностью ПРООН в Республике Каракалпакстан.

В ходе официальной встречи в Жокаргы Кенесе Республики Каракалпакстан госпожа Димовска подчеркнула, значимость региона Приаралья в деятельности ПРООН в Узбекистане. В рамках реализации совместных проектов и инициатив с 2012 года по сегодняшний день внедрено 64 проектов по улучшению социальной инфраструктуры, что позволило обеспечить свыше 66 000 сельских жителей доступом к питьевой воде, электричеству, а также здравоохранению и образованию.

В рамках первого в республике совместного проекта ПРООН и Адаптационного фонда в тесном сотрудничестве с местным населением на территории общей площадью в 15 300 гектаров организованы 10 пастбищных кооперативов, членами которых являются 43 000 человек объединённых общей целью – восстановить продуктивность деградированных пастбищ и создать новые. Осуществляется комплекс мер по обеспечению климатоустойчивого сельского хозяйства посредством пилотирования агро и водосберегающих технологий и адаптационных практик на ландшафтном уровне.

С 2014 года ПРООН тесно сотрудничает с Центром гидрометеорологической службы Республики Узбекистан в рамках реализации совместного проекта «Обеспечение климатической устойчивости фермерских и дехканских хозяйств, расположенных в засушливых районах Узбекистана», финансируемого Адаптационным фондом РКИК ООН. В качестве одной из мер к адаптации к изменению климата на ландшафтном уровне, при поддержке проекта, в Каракалпакстане впервые были созданы пастбищные кооперативы. Их задачей является организация устойчивого кормового базиса для развития пастбищного животноводства, эффективное управление пастбищами, восстановление и улучшение деградированных земель. В рамках визита, с участием госпожи Димовска, была проведена церемония передачи трех тракторов в пользование местным пастбищным сообществам, организованным в рамках проекта, а также в Нукусе состоялась церемония запуска нового проекта ПРООН и ЮНЕСКО «Решение насущных проблем человеческой безопасности в регионе Приаралья путем содействия устойчивому сельскому развитию». Проект, направленный на смягчение негативных экологических, социальных и экономических последствий в наиболее уязвимых сообществах региона, получил финансовую поддержку Многопартнерского трастового фонда ООН по человеческой безопасности для региона Приаралья.

«Позвольте мне заверить вас, что для ПРООН вопросы поддержки региона Приаралья имеют большое значение, мы и дальше будем работать над расширением своего участия в регионе, - заявила госпожа Димовска в своей приветственной речи в адрес участников церемонии. - ПРООН предлагает глобальный опыт по внедрению инновационных решений для комплексного достижения Целей устойчивого развития в регионе».

Также в ходе визита Постоянного представителя ПРООН в Узбекистане состоялись встречи с фермерами, предпринимателями, представителями местного сообщества в Тахтакупырском, Муйнакском, Шуманайском районах.

(информация предоставлена Проектом ПРООН/Узгидромет/АФ «Обеспечение климатической устойчивости фермерских и дехканских хозяйств, расположенных в засушливых районах Узбекистана»).